

Андижон муҳандислик иқтисодиёт институти
Молия кафедраси

Бакалавриат Ғазначилик йўналиши

3 курс талабаси

Эргашев Санжарнинг

“Молиявий назорат” фанидан тайёрлаган

ТАҚДИМОТИ

Текширди: И.ф.н.М-А.Ҳ.Эшонов

MAVZU:

**ROSSIYA FEDERASIYASIDA
MOLIYAVIY NAZORAT**

REJA:

- 1. Rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy nazoratning ahamiyati.**
- 2. Rossiyada moliyaviy nazoratning mohiyati, uning shakllari, usullari va turlari.**
- 3. Rossiyada moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi organlar.**

Jahon tajribasiga ko'ra, barqaror iqtisodiy taraqqiyotga erishishning shartlari:

- davlat tomonidan o'rnatilgan qonunlar va me'yorlarga amal qilish;
- fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish.

Iqtisodiy sub'ektlar tomonidan qonunchilikka rioya etishlarini, boshqaruvchilar tasarrufidagi mulkning samarali boshqarilishini nazorat qilish zarurdir. Aynan shuning uchun rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy hayotning barcha jabhalarida va ayniqsa, davlat moliyasi sohasida moliyaviy nazorat (MN) ni tashkil etish masalalariga katta e'tibor qaratiladi.

Har bir mamlakatda MN ishlashi tizimining tarixiy an'analar, ijtimoiy va iqtisodiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda muayyan farqlari mavjud. Lekin

- 1977-yilda qabul qilingan Lim deklarasiyasining bosh nazorat tamoyillari,

- Oliy nazorat organlari xalqaro tashkiloti – INTOSAI ning samarali faoliyati

asosida hamma uchun umumiy va bir bo'lgan yondashishga erishish, davlat boshqaruvi tizimida MN organlari ahamiyatini oshirish va eng yaxshi tajribadan keng foydalanish imkoni yaratilmoqda.

Yangi zamon tarixi shuni ko'rsatyaptiki, iqtisodiyotning erkinlashuvi va bozor munosabatlarning rivojlanishi pul oqimlarining harakatini davlat tomonidan nazorat qilishni bekor qilmaydi. Aksincha, ko'p ukkladli iqtisodiyot, mulk shakllarining xilma xilligi sharoitida, fond va kapital bozorlarining paydo bo'lishi natijasida kuchli MN tizimini yaratish zarurati vujudga keldi.

Shu jumladan, Rossiya uchun MN tizimini samarali tashkil etish muhim masalalardan hisoblanadi.

Mamlakatda mavjud bo'lgan sobiq MN tizimi ma'muriy-buyruqbozlik usuli bilan boshqariladigan, hamda davlat mulki asosiy o'rin tutgan iqtisodiyotga mo'ljallangan edi. Iqtisodiy o'zgarishlar yagona tamoyillar asosida amalga oshiriladigan, iqtisodiy hayotning barcha jabhalarini qamrab oladigan MNning yangi tizimini yaratishni keltirib chiqardi.

MOLIYAVIY NAZORAT

– muayyan usul va shakllarni qo'llagan holda, iqtisodiy sub'yektlarning moliyaviy va moliya bilan bog'liq faoliyatini tekshirish bo'yicha tadbirlar yig'indisidir.

Moliyaviy nazorat usullari

```
graph TD; A[Moliyaviy nazorat usullari] --- B[tekshirish]; A --- C[iqtisodiy tahlil]; A --- D[kuzatish]; A --- E[taftish];
```

tekshirish

iqtisodiy tahlil

kuzatish

taftish

Moliyaviy nazorat shakllari

```
graph TD; A[Moliyaviy nazorat shakllari] --> B[dastlabki]; A --> C[joriy]; A --> D[so'nggi]
```

dastlabki

joriy

so'nggi

Moliyaviy nazoratning sub'ektlari bo'yicha turlari

```
graph TD; A[Moliyaviy nazoratning sub'ektlari bo'yicha turlari] --> B[1. Davlat nazorati]; A --> C[2. Ichki xo'jalik nazorati]; A --> D[3. Mustaqil (auditorlik) nazorati];
```

1. Davlat nazorati

2. Ichki xo'jalik nazorati

**3. Mustaqil (auditorlik)
nazorati**

Ba'zan quyidagicha tasnifni ham ko'rish mumkin:

- **Davlat nazorati;**
- **Auditorlik nazorati;**
- **Jamoatchilik nazorati.**

Davlat nazorati – umumdavlat va unga bo'ysunuvchi nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat.

Ichki xo'jalik nazorati – korxona va tashkilotlarning iqtisodiy va moliyaviy xizmatlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat.

Mustaqil nazorat – maxsus organlar: auditorlik firmalari va boshqa xizmatlar tomonidan amalga oshiriladigan nazorat.

Jamoatchilik nazorati – nodavlat tashkilotlari va jamoat institutlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat.

Davlat MNning ob'ekti – davlat (va uning tashkilotlari) tasarrufidagi moliyaviy resurslarning shakllanishi va ularning davlat va jamiyat ehtiyojlarini qondirishga sarflanishi bilan bog'liq pul munosabatlari.

Davlat MN amalga oshirilishi kerak bo'lgan sub'ektlar:

- davlat hokimiyati organlari (sh.j., ularning devonlari);
- davlat tashkilotlari va korxonalari, hamda davlat ulushi bor korxona va tashkilotlar;
- budget mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan va davlat subsidiyalarini oluvchi tashkilot va korxonalar;
- davlatning budget va nobudget jamg'armalari;
- o'zini o'zi boshqarish organlari;
- jamoat birlashmalari, nodavlat fondlar va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari;
- tadbirkorlik tuzilmalari va jismoniy shaxslar.

Davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiruvchi organlar:

1. “Yadro” - umumdavlat (umumiy kompetenciyaga ega) nazorat organlari

— Hisob palatalari tizimi

— Rossiya Federasiyasi Prezidentining bosh nazorat boshqarmasi

— Rossiya Moliya vazirligining asosiy nazorat organlari

2. “Periferiya” – maxsus nazorat organlari

— Soliq nazorati organlari

— Valyuta nazorati organlari

— Bojxona nazorat organlari

— Markaziy Bank

Hisob palatalari tizimi:

- **Rossiya Federasiyasi Hisob palatasi**
- **Rossiya Federasiyasi sub'ektlarining nazorat-hisob palatalari**

“Rossiya Federasiyasi Hisob palatasi to’g’risida”gi Federal qonunga ko’ra:

- Hisob palatasi – Federal Kengash va unga qarashli organlardan iborat davlat moliyaviy nazoratining doimiy organidir (1-modda);**
- Hisob palatasi qonuniylik, ob’ektivlik, mustaqillik va oshkoralik tamoyili asosida federal budjeti ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiradi (3-modda);**
- Hisob palatasining ishini, nazorat-taftish faoliyatining metodologiyasini, Federasiya Kengashi va Davlat Dumasiga yuboriladigan hisobot va axborot xabarlarini rejalashtirish va tashkil qilish masalalarini ko’rib chiqish uchun Hisob palatasi Kollegiyasi tashkil etiladi. Kollegiya tarkibiga Hisob palatasi raisi, Hisob palatasi raisi o’rinbosari va Hisob palatasi auditorlari kiradi (7-modda).**

**“Hisob palatasi to’g’risida”gi qonunning
5-moddasida esa quyidagilar berilgan:**

- Hisob palatasining Raisi va Rais o’rinbosari, mos ravishda Davlat Dumasi va Rossiya Federasiyasi Federal Kengashining Federasiya Kengashi tomonidan va Rosiia Federasiyasining prezidenti taqdimiga ko’ra lavozimga saylanadi va lavozimdan bo’shatiladi.

6-moddasida esa:

- Hisob palatasi Raisi, Rais o’rinbosari va Hisob palatasi auditorlarining saylanish muddati 6 yil qilib belgilangan.
- Davlat Dumasi tarqatilishi taqdirida ham Hisob palatasining faoliyati to’xtatilib qo’yilmaydi.

Hisob palatasining vazifalari:

- 1)** Federal budget va budgetdan tashqari federal fondlari budgetining daromad va xarajatlar moddalarining o'z vaqtida ijro etilishini nazorat qilish;
- 2)** Davlat mablag'larining sarflanishi va federal mulkning ishlatilishi maqsadga muvofiqligi va samarali ekanligini aniqlash;
- 3)** Federal budget va budgetdan tashqari federal fondlari loyihalarida daromadlar va xarajatlar qismining asoslanganligini baholash;
- 4)** Federal budgetdan xarajatni ko'zda tutgan yoki federal budget va budgetdan tashqari federal fondlar bajarilishiga ta'sir etuvchi qonunlar, hamda davlat hokimiyati federal organlarining me'yoriy-huquqiy hujjatlari loyihalari moliyaviy ekspertizasini o'tkazish;

Hisob palatasi apparati haqida ayrim ma'lumotlar:

- Apparat asosini inspeksiyalar tashkil etadi.
- Bugungi kunda apparatda 1000 tadan ortiq xodim ishlaydi.
- Xodimlarning o'rtacha yoshi – 45,2 yosh.
- Kollektivning shakllanishi auditorlarning va tegishli bo'lim boshliqlarining taqdimiga ko'ra, bevosita Hisob palatasi Raisning boshqaruvi asosida shakllanadi.
- Xodimlarning 97% oliy ma'lumotga ega.
- Hisob palatasida 541 ta iqtisodchi va moliyachi, 134 ta yurist va 59 ta boshqaruvchi bor.
- Hisob palatasida 27 da doktor va 97 ta fan nomzodlari mavjud.

Hisob palatasi apparati haqida ayrim ma'lumotlar:

- Rossiya Hisob palatasi Raisi – S.V.Stepashin
- Ijro etuvchi sekretar' – N.S.Stolyarov
- 1998-yildan boshlab Hisob palatasi byulleteni ochiq nashrga (foydalanishga) o'tdi. Byulleten har oy Hisob palatasining nazorat hisobotlari ko'rinishida chiqadi.
- 1995-yilda Hisob palatasi INTOSAI va Yevropa oliy nazorat organlari tashkiloti (YEVROSAI) tarkibiga kirdi;
- 1996-yilda AZOSAI ga a'zo bo'ldi.
- 2000-yilda birinchi marta Moskvada MDH oliy nazorat organlari boshliqlari ishtirokida majlis bo'lib o'tdi.
- 33 ta mamlakat nazorat organlari bilan kelishuvlari mavjud.

Rossiya Federasiyasi Prezidentining bosh nazorat boshqarmasi (PBNB) ko'proq moliyaviy emas, balki ma'muriy nazorat bo'lib, uning quyidagi vazifalari mavjud:

- 1)** Barcha darajali ijro etuvchi organlar faoliyatining ma'muriy-boshqaruv sifati ustidan nazorat;
- 2)** Bozor islohotlarini amalga oshirish, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlariga erishish muvaffaqiyatlari ustidan nazorat;
- 3)** Ijtimoiy-iqtisodi siyosat va uning muayyan dasturlari amalga oshishining nazorati;
- 4)** Ijro hokimiyati organlarining kadrlar bo'yicha siyosati nazorati va mansabdor shaxslarning ustidan nazorat;

PBNBning vazifalari: (davomi)

- 5) Amaldagi davlat organlari faoliyatidagi kamchilik va yetishmovchiliklarni aniqlash va bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish;**
- 6) Davlat boshqaruvining ilmiy asoslarini takomillashtirish va standartlarning ishlab chiqilishi;**
- 7) Davlat qurilmasi shaklining optimallik darajasini baholash**
- 8) Boshqa davlat nazorati organlarining ijro etish tartibi va sifatini baholash;**
- 9) Davlat ijtimoiy-iqtisodiy tizimi mustahkamligiga to'siq bo'luvchi omillarni aniqlash va ularga baho berish.**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi o'zgarishlar sharoitida MN ning, ayniqsa davlat MN ning ahamiyati oshib bormoqda. Iqtisodiy suverenitet va bir butun iqtisodiy qamrovni saqlab qolish uchun Rossiya MN tizimini takomillashtirishi hamda iqtisodiyotning barcha sohalari va bozor o'zgarishlarining yo'nalishlari nazorat qilinishi zarurdir.

Bundan tashqari, Rossiya Federasiyasi davlat MN tizimining samarali ishlashi varivojlangan mamlakatlar darajasiga to'g'ri kelishi uchun davlat ko'plab islohotlar o'tkazishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.** Braycheva T.N. Gosudarstvennie finansi. SPg: "Piter", 2001
- 2.** Rodionova V.M., Shleynikov V.I. Finansoviy kontrol'. Uchebnik. M.: "INFRA-M", 2003
- 3.** Finansi. Uchebnik. Pod red.prof.Lushina S.I., prof.Slepova V.A. M.: "Ekonomist", 2005
- 4.** www.ach.gov.ru
- 5.** www.budgetrf.ru
- 6.** www.fincontrol.ru
- 7.** www.mediatext.ru
- 8.** www.tass.ru
- 9.** www.k-press.ru